

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## IS’HOQXON IBRAT SAFARNOMALARDA ILM VA TARAQQIYOT IZLARI

**Akbar Nurmatov**

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “YUNESKO va ixtisoslashgan media” kafedrasida mudiri, f.f.n.dos.*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15291011>

**Annotatsiya:** Maqola Is’hoqxon Ibratning safarnomalarida ilm va taraqqiyot izlariga bag‘ishlangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston ziyolisi sifatida Ibrat o‘z sayohatlarida Sharq va G‘arb madaniyatlarini muqoyasa qilib, ma’rifatparvarlik g‘oyalari targ‘ib qilgan. Uning “Jome’ ul-xutut”, “Tarixi Farg‘ona” kabi asarlarida sayohat xotiralari orqali madaniy, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot masalalari yoritilgan. Ibratning safarlari milliy o‘zlikni anglash, ilm-fanga intilish va mustamlaka zulmiga qarshi kurashish g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** Is’hoqxon Ibrat, safarnoma, ma’rifatparvarlik, Turkiston, ilm, taraqqiyot, madaniyat, publitsistika, Sharq, G‘arb.

**Аннотация:** Статья посвящена исследованию следов науки и прогресса в путевых заметках Исхакхана Ибрата. Как представитель туркестанской интеллигенции конса XIX – начала XX века, Ибрат в своих путешествиях сравнивал культуры Востока и Запада, пропагандируя идеи просвещения. В произведениях, таких как «Джоме ул-хутут» и «Тарихи Фаргона», через призму путевых впечатлений рассматриваются вопросы культурного, социального и научного развития. Путешествия Ибрата тесно связаны с осознанием национальной идентичности, стремлением к знаниям и борьбой против колониального гнета.

**Ключевые слова:** Исхакхан Ибрат, путевые заметки, просвещение, Туркестан, наука, прогресс, культура, публицистика, Восток, Запад.

**Annotation:** The article explores the traces of science and progress in the travelogues of Isakhan Ibrat. As a Turkiestani intellectual of the late 19th – early 20th century, Ibrat compared Eastern and Western cultures in his journeys, promoting enlightenment ideals. In works such as *Jome ul-Khutut* and *Tarikhi Fargona*, he addresses issues of cultural, social, and scientific development through travel experiences. Ibrat’s journeys are deeply connected to the quest for national identity, the pursuit of knowledge, and resistance against colonial oppression.

**Keywords:** Isakhan Ibrat, travelogue, enlightenment, Turkestan, science, progress, culture, journalism, East, West.

Shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi, publitsist va sayohatchi Is’hoqxon Ibrat 1862 yili Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ildi. Uning ota-onalari Junaydulla xo‘ja va Huribibi davrining o‘qimli kishilaridan bo‘lganlar. Is’hoqxon Ibrat dastlab qishloq maktabida, so‘ng onasining qo‘lida savod chiqardi. Yoshligidan tilga bo‘lgan iqtidori tufayli o‘nga yaqin Sharq va G‘arb tillarini, jumladan arab, fors, rus, turk, hind va boshqa tillarini egalladi. U

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

mustamlakachilar tomonidan rus va o‘zbek tillarida chiqadigan Turkistonning ilk gazetalari “Turkiston viloyatining gazetisi” va “Turkestanskije vedomosti” hamda Turkiston o‘lkasida ham tarqala boshlagan Ismoilbek G‘aspralining “Tarjumon” gazetasi bilan yaqindan tanishib boradi. Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlarida madaniy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr taraqqiyotida matbuot, nashriyot muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbek ziyolilari Ahmad Donish, Furqat, Komil Xorazmiy, Is‘hokxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Mirmuhsin Shermuhamedov-Fikriylar va boshqa jadidlar o‘zlarining ilg‘or qarashlarini yoyishda matbuotdan minbar sifatida foydalandilar. Shuning uchun ham XX asr boshlarida ilg‘or, hozirjavob publitsistika janri yetakchi o‘rin tutdi. Publitsistika o‘zbek adabiyoti uchun yangi janr bo‘lishiga qaramay, o‘zbek ma‘rifatparvarlarining jangovar minbariga aylandi. Shuning uchun ham Is‘hokxon to‘ra Ibrat qator publitsistik maqola va she‘rlarida matbuotning xalq ma‘naviy-madaniy hayotidagi ahamiyatiga yuksak baho berdi. O‘zbek ma‘rifatparvarlari o‘zlarining ilk publitsistik asarlarini o‘zbek tilida birinchi bor chiqqan «Turkiston viloyatining gazetisi»da e‘lon qildilar. Ibrat publitsistikasida ma‘rifatparvarlik, yuksak axloqiy g‘oyalarni targ‘ib qilish xususiyatlari yetakchilik qildi. Isxoqxon Ibratning o‘zi qilgan sayohatlari bir nechta asarlarida o‘z aksini topgan: Bo‘larga misol qilib 1. «Jome‘ ul-xutut» [Is‘hoqxon To‘ra Ibrat.7], «Tarixi Farg‘ona», ISTORIYA DREVNEGO GORODA AXSI V FERGANSKOY OBLASTI [Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. 6:48-55] (Farg‘ona muzofotidagi Axsu shahriga sayohat- uni tarixi haqida), Toshkent safaridagi ma‘lumotlarim [Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. 8] maqolalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Aslida Is‘hoqxon Ibratning deyarli barcha asarlarida sayohat xotiralari (xoh u tarixiy, xoh u geografik, xoh u tabiat va madaniyat haqida bo‘lsin) ni berib o‘tadi, ularga o‘z munosabati, izohi va ta‘rifini yozib qoldirgan.

Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmida turkistonlik ziyolilar ko‘plab safarga chiqadilar va bu haqda asarlar ham yozib qoldirganlar. Bunga yorqin misol sifatida Ahmad Donish (1827-1897) ning «Nodir voqealar» safarnomasini keltirish mumkin. U 1857 yilda Buxoro amiri Nasrulloning elchilari hay‘atida dastlab Peterburgga borgan, u yerda bir yil turgach, yana vataniga qaytgan, keyinchalik, 1869 va 1873-1874 yillarda yana Rossiyaga safar qilib, u yerdagi hayot va madaniyat bilan tanishgan. Uning “Nodir voqealar” kitobida ana shular haqda, Peterburg va Moskva xotiralari bayon etilgan [Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. 1].

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Safarnoma yozganlardan yana biri Qozi Rahmatulla Buxoriy (Vozix) bo'lib, u 1886-1887 yillarda Turkmaniston, Eron, Kavkaz, Istanbul orqali Arabistonga sayohat qilib, vataniga Iroq-Eron orqali qaytgan. Uning yo'l xotiralari yozilgan «G'aroyib al-xabar fi ajoyib as-safar» deb ataladi.. Bu asarda juda ko'p shaharlarning, daryo va kanallar, konlar, ekinzorlarning, hatto ko'cha, bozor va maqbaralarning ham izohoti berilgan [X.Hasanov. 9].

XIX asrning ikkinchi yarmida yana buxorolik Muhammad Porsoxo'ja ibn Inoyatulla xo'janing Turkiya va Hindistonga borib-kelib turganligi, buxorolik Mirzo Sirojiddin (1878-1914) ning ham uzoq sayohatlarga borgani, sharq mamlakatlarini Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, G'arbiy Yevropani, Budapesht, Vena, Berlin, Parij va Londonni ham kezib chiqqani haqida ma'lumotlar bor [X.Hasanov. 9].

Sadriddin Ayniy 1905 yilda Tehronda nashr qilingan «Sayohatnomai Ibrohimbek» safarnomasi o'sha davrda Buxoroning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida katta hodisa bo'lganini yozadi [2]. XX asr boshida Peterburgda chiqqan qozonlik publitsist Salim Garoy Sultonovning “Haj sayohati”, 1903 yilda Qozonda chop etilgan Rizouddin Ibni Faxruddinning “Ismoil sayohati” kabi safarnomalar turkistonlik jadidlar va ziyolilarga ulkan ta'sir etgan. Taniqli nemis olimasi Ingeborg Baldaufning guvohlik berishicha Peter Tomzening “Falastin adabiyoti” (Leypsix, 1916) kitobida 1910-1914 yillar orasida yuzdan ortiq “Sayohatnomalar” bitilgan. Russiyadan kelgan yahudiylar va musulmonlar yozgan bu asarlar Qozon, Saratov, Odessa kabi shaharlarda nashr qilingan [Ingeborg Baldauf. 3].

XX asrning birinchi yarmida ko'plab jadid namoyondalari safarnoma janrida ijod qilganlar. M.Behbudiy, A.Avloniy, Hoji Muin, Munavvarqori Abdurashidxonov, N.Yovushev, Is'hoqxon Ibrat, Mannon Romiz va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ushbu ijodkorlarning barchasi o'ziga xos, individual safarnomalar yozishgan.

Bular ichida Is'hoqxon Ibrat safarnomalari ham alohida o'rin egallaydi. U o'zining «Lug'ati sittati alsina», «Jome' ul-xutut» va «Tarixi Farg'ona» asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya'ni 25 yoshida onasini Makkaga, haj ziyoratiga olib borgani, biroq onaizoriga o'z vataniga yana qaytib kelish nasib etmagani haqida qaydlar uchraydi. Onasi Huribibi Jidda shahrida o'pka shamollash kasali bilan vafot etadi. Is'hokxonning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, birinchidan, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rish istagi edi: «...Umrum naqdini havas bozorida kechirmak taqozosi-la o'lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havoii taqozoi muhtarama dushub sayohat

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

etdum...» [Is’hoqxon Ibrat. 4]. — deb yozadi u. Is’hoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatini davom ettirdi. Shu bilan birga, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo‘ldi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892 — 1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombay va Kalkuttada yashadi. Bu yerda ko‘p ishlatiladigan arba’ lisonni, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. Chet ellarda u Sharq va G‘arb xalqlari hayoti, madaniyati va san’atini muqoyasa etish imkoniga ega bo‘ldi. Yevropaning ilg‘or ilmfanini yaqindan o‘rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli materiallar to‘pladi. U Sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda G‘arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rgandi. Is’hoqxon Ibrat bu mamlakatlarda Yevropa usulidagi shaharlar, ulardagi madaniy hayot va texnika yangiliklari bilan tanishdi, zamonaviy fan yutuqlarini egallash uchun G‘arb tillarini bilish zarur ekanligini yaxshi angladi. Lekin bu madaniy hayotdan bahramand bo‘la olmayotgan, mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan arab, hind va boshqa Sharq xalqlari hayoti uni iztirobga soldi. Is’hoqxon o‘z Vatanida ko‘rgan mustamlaka zulmining og‘ir dahshatlarini chet mamlakatlarda ham ko‘rdi, hamma mustamlaka mamlakatlarda xalq hayoti bir xilda og‘ir ekanligini tushundi. Mustabidlarga nafrat bilan qaradi. Ibrat bu mamlakatlarda naqqoshlik, kishilarga muhr o‘yib berish, masjid-madrasalar peshtoqlariga, qabr toshlariga naqsh solib berish, ba’zi kitoblardan namunalar ko‘chirib berish yo‘li bilan tirikchilik o‘tkazdi. Is’hoqxon Ibrat chet ellarda olim va fozil kishilar bilan, ular qaysi dinga yoki millatga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, yaqin aloqada bo‘ldi. «Har bir lison safar axlina yuz oltun barobarinda» ishlatilganligini tushungan ma’rifatparvar chet tillarni o‘rganishga katta e’tibor berdi: «Har bir zavvor va axli fazl kishini ko‘rsam, kayfiyat va ta’limot maollarini andin so‘radim» [Is’hoqxon Ibrat. 7].

Is’hoqxon Ibratning yana bir “ИСТОРИЯ ДРЕВНЕГО ГОРОДА АХСИ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ” maqolasida o‘lkadagi Axxi yoki Axxikent degan katta shahar bo‘lganligini va uning tarixini, to‘la geografik tavsifnomasini, nima sababdan yo‘q bo‘lganlari haqida atroflicha to‘xtab o‘tadi. Masalan u shunday yozadi: Farg‘ona oblastida qadimgi zamonlarda poytaxt bo‘lub turgan Axxi yoki Axxikent degan katta shahar bo‘lgan ekan. Bul kunlarda mazkur shaharning o‘rni va asorati yaxshi ma’lumdur. Chunonchi, Namangan uezdiga tobe’ xuddi Namangan shahridin o‘n besh chaqirim masofada Axxi bo‘lustida daryo labida bir necha qishloqdin iboratdur.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bul xususda tavorix kitoblardan mazkur Axsiket xususida xabar olib, tavorix uchun biror risola tasnif qilmoq lozimdur, ya’ni ul shahar qaysi vaqtda ul martaba bino bo‘lgan, qaysi xon va beklar ul shaharda hukumat qilgan va fuqarolarni(ng) maishati qayu tariqada bo‘lgan va ham qayu vaqtda nima sabablar ila ul shahar vayron va xarob bo‘lgan va nima uchun ul joyda hech kim turolmagan” [Is’hoqxon Ibrat. 7]. Is’hoqxon Ibrat boshqa asarlarida ham turli shahar va qishloqlar haqida ham shunday to‘liq etnografik va geografik ma’lumotlar beradi. Muallifning yana bir katta yutug‘i shundaki, u o‘z asarini sodda, o‘sha davr adabiy til me’yoriga to‘la rioya qilgan holda yaratgan. Shuning uchunmi, Ibratning uslubi, tasvirlash doirasining kengligi jihatidan masalan, «Tarixi Farg‘ona» asari Boburning buyuk «Boburnoma» asari ta’sirida yozilgani sezilib turadi.

Is’hoqxon Ibrat «Tarixi Farg‘ona», «Tarixi madaniyat», «Mezon uz-zamon» kabi asarlarida ham o‘zining pedagogik-ma’rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi. U chet el sayohati vaqtida texnika va madaniyat rivojlangan shaharlarda bo‘ldi. Turkiston shaharlarining ham madaniy shaharlar qatoridan o‘rin olishiga ishondi. Buni amalga oshirishning birdan-bir yo‘lini ilm-fanda, o‘qish-o‘rganishda, deb bildi: Is’hoqxon Ibrat sayohatlari davomida milliy o‘zligini anglab yetishga harakat qiladi, “begona”dan “o‘zi” ni farqlaydi. Masalan u “Madaniyat haqida masnaviy” she’rida shunday deydi:

“Madaniy shahar hozir olamda,  
O‘n ikkidur hisob odamda.  
Misr, Istanbul, Farish, Berlin,  
Lundun va Madrid, Vashilg‘itun.  
Vena, Petrograd ham To‘kiyo,  
Madaniyatda bo‘lg‘uvchilar bu.  
Birisini oti erur Rumo,  
Madaniyatning yeri erur Doniyo.  
Madaniylikda fe’lu af’oli,  
Rohat ichra hamisha ahvoli [Is’hoqxon Ibrat. 7].

Ibrat qaysi asarida, xoh u nazmiy yoki nasriy bo‘lmasin, “o‘zi” va “begona” olam o‘rtasidagi qarama-qarshiliklari haqida hikoya qiladi. Amerikalik madaniyatshunos olim Mak Kenen - sayohatning asosiy maqsadi – “...boshqa makon va zamon, begona yurt, tarix, madaniyatdan o‘z-o‘zini izlash va o‘zligini anglash” [MacCannell D. 10], deganidek, Is’hoqxon Ibrat ham «Bizning Rusiyada Petrograd, Maskov, Ades (Odessa) va shunga o‘xshash shaharlar bor. Fransiyada (Evropada

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

demoqchi) Faris, Berlin, Vena va Madrid, London, Rumo, Vashington, Sharqda Tokio, Istanbul. Mundan bo‘lak necha-necha shaharlar bor, o‘zi kichkina bo‘lsa ham madaniyat topgan. Bu madaniyat shaharlari madaniyatni nima birlan topgan? Ilm birlan, o‘qub... Madaniyatni topadurgan va yurguzadurgan asbobi ilm ekan», deya bot-bot ta‘kidlaydi [Is‘hoqxon Ibrat. 5].

Ahli Turkistonni shoyad isloh aylasa

“Madaniyatda yurgil o‘lguncha,  
Badaviyatda shoh bo‘lguncha.”

...o‘z xalqimiz biri past, biri baland deb, beittifoq bo‘lurlar.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadi Donish. Navodir – ul – vaqoe‘. Dushanbe. Nashriyoti “Donish”. 1988.
2. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. M.: SSSR xalqlari nashriyoti. 1926 yil. 31 b.
3. Ingeborg Baldauf. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. T.: Ma‘naviyat. 2001.
4. Is‘hoqxon Ibrat. Lug‘ati sittati alsina. T.: Ilin tipografiyasi, 1901, 2-b
5. Is‘hoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat, O‘z FASHI Qo‘lyozmalar fondi, inv. № 11616, 112-bet.
6. Is‘hoqxon Ibratning «Turkiston viloyatining gazetida e‘lon qilingan maqolalari, tahririyat qoidasiga binoan ruscha sarlavha bilan e‘lon qilingan. TVG, 1913, 23 iyun soni.48-55 nomerlari.
7. Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma‘naviyat”. 2005 y. 159 b.
8. TVG, 1914 yil, 15 iyun, 46-nomer.
9. X. Hasanov. Sayyoh olimlar. – T.: O‘zbekiston. 1981. 236 b.
10. MacCannell D. A New Theory of the Leisure Class. – N. Y., 1984. – 217 p.